

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:17 (67026)

2015-yil

27-aprel



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Musurmon ANORBOYEV va
Nafisa aya XOLBEKOVA
40 yil davomida Toshkent viloyatidagi
5-umumta'lim maktabida o'quvchilariga ta'lim-
tarbiya bergen fidoyi ustozlardan.

Ayni paytda respublikamizdagi 9698 ta umumta'lim maktabining barchasida chet tillar o'qitilmoqda. Xususan, boshlang'ich sinflarda 94 foiz o'quvchilar ingliz, 3,5 foizi nemis va 2,5 foizi fransuz tilini o'rganmoqda.

Uzbekistan is
my motherland!



Favorolar uchishar ko'kka,
Xotiralar kechar xayoldan.
Tinchlik muhrlanar yurakka,
Vatan nadir, degan savoldan.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumanidagi 72-IDUM 6-«Ali» sinf
o'quvchilari Sirojiddin ISMATULLAYEV
hamda Sevinch ABDUVAHOBובה ingliz
tilli fani bo'yicha eng a'lochi
o'quvchilardan.

HAYOTBAXSH

ZARRALAR QUVONCHI

Qadim-qadimdan
dono xalqimiz suvgaga o'zgacha
mehri bilan qaragan. Qiyoq, soy,
daryo bo'yular obodonlashtirilib,
hordiq chiqarish uchun qulay
joylarga aylantirilgan.



Tabiatning noyob mo'jizasi bo'lgan suvning shifobaxsh obihayotligi dunyo olmlari tomonidan ko'p bor e'tirof etilgan. Mamlakatimizda 1-may – Favorolar sayli yoshlar ommaviy-madaniy bayrami sifatida belgilanishi ko'pchilikning dilidagi ayni muddao bo'ldi. Ushbu kunda keng maydonlar, muhtasham binolar oldidagi rang-barang favorolar atrofi yanada gayrum bo'ladi. Buvasi yoki buvisining qo'lidan ushlab olgan, musiqiy favora ohangidan zavqi ichiga sig'mayotgan bolajonlar shodligiga qiyos topilmasa kerak.

BOBOM QUYOSHGA O'XSHAR

Erta tongda ko'kka ko'tarilayotgan quyoshni tomosha qilganmisiz? Saxyi quyosh avvaliga tog'lar cho'qqisini, so'ngra qir-u dalalarni, undan so'ng bog'u roq'larni nurga to'ldiradi.



Men bobomni quyoshga o'xshataman. Mehri cheksiz u zotning dargohiga borganimda, qo'llarida ketmon yoki tokqaychi ko'raman. Tomorqa yumushlari bilan doim band bo'ladijan bobojonimning pand-nasihatlariga amal qilaman.

— Biz qiyinchilikda o'sdik, siz aslo bunday kunlarni ko'manglar, hamisha baxtli bo'linglar, — deydilar.

Bobomning boshlaridan kechirgan kunlarini eshitganimda, xuddi ertakde tuyuladi. — Esimni taniganimdan dalada mehnat qilganman, bizning suyagimiz mehnatda qotgan. Bolaligimizda sunvi buлоqdan tashirdik, yozda chang, qishda loy bo'ladijan ko'chalardan maktabga qatnardi, — deydilar. Men har safar ularnikiga otlanganimda, maktabdagisi a'lo baholarim, jamoat ishlarida faol qatnashganim uchun berilgan faxriy yorliqlarimni o'zim bilan olaman. Ularni bobojonimga ko'rsatib, yaxshi o'qiyotganimni, sinfimizda a'lochi qiz ekanligimni aytaman. Sakson yoshni qarshilab borayotgan bobojonim va mehribon buvijonimning yonlariga talpinaman. Ularni negadir sog'inib qolaveraman.

*Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lum maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi*

Yaqinda Uch-tepa tumanidagi 296-umumta'lum maktabida ma'rifat homisi, ilm-fan, adabiyot va san'at, madaniyat rah-namosi, sarkarda, temuriylar davlatiga asos solgan Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan «Buyuk bobomiz» mavzusida qiziqarli tadbir bo'lib o'tdi.

Sohibqiron hayotiga oid sahna ko'rinishi kuy va qo'shiqlarga ularib ketdi. O'quvchilardan Zufar Zokirov, Shahzoda Uchqunxonova, Bobur Maqsudxo'jayev, Saodat G'ofurova, Madina Abdupattohova, Malohat Valixonova, Kamola G'ofurova, Zarnigor Aminjonova hamda Muhammaddin No'monov tadbirda faol ishtirot etishdi. Shoir Oygul Ubaydulla qizi, ustozlardan Said Nizomova va Surayyo Qodirovalar Amir Temuring ibratli hayoti xususida so'zlab berishdi.

Kimki senga do'stlik qilsa, unutma, unga muruvvat qil, ehson, izzat-krom ko'rsat, deya saboq bergan buyuk va suyukli inson avlodni ekanligimiz qalbimizda iftixor uyg'otadi. Bobomizning o'gtillariga doimo amal qilib, ajdodlarga munosib voris bo'lismaga harakat qilamiz.

*Dilbar PRIMOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 296-umumta'lum maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi*

7-«A»DAN 6 TA MAK TUB

Tahririyatimizga kelgan maktublarni saralar ekanmiz, olslardan bo'lsa-da, o'quvchilarining gazetamizga bo'lgan mehrini tuyib turamiz. Bu safar bizga Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 24-umumta'lum maktabining 7-«A» sinfida tahlil olayotgan o'quvchilardan bir vaqtning o'zida 6 ta maktub keldi. Shu sinf o'quvchisi Faxriddin NURMO'MINOV o'qigan ertaklari asosida rasm chizgan bo'lsa, ayrimlari ijod namunalari-yu kelgusidagi orzu-umidlari bilan o'rtoqlashishibdi.

PAZANDA QIZLARMIZ

Men va sinfdoshlarim «Tong yulduzi» gazetasidan o'zimizni qiziqitqangan barcha mavzularini topamiz: pazandalikka qiziqqanlar gazetaning har bir sonida yangi retseptiar bilan tanishishsa, chet tiliga ishtiyoqi borlar inglez tilidan maktaba oлgan bilimlarini mustahkamlashmoqda. Topishmog'u boshqotirmalarni aymaysizmi?! Ulaming har birini maroq bilan yechamiz.

*Soliha OMONOVA,
Farzona SULTONMURODOVA,
Mahfuza ABDUXALILOVA*

ORZULARIM BIR OLAM

Men kelgusida dadamga o'xshab haydovchi bo'lishni istayman. Buning uchun bor mahoratimni sarflashga tayyorman. Maktabni bitirgach, kollejda tahlil olib, bilimimni yanada mustahkamlayman. Barcha ustozlarimidan minnatdorman. Bizga bilim berib, kelgusida komil inson bo'lib voyaga yetishimizda ularning hissasi katta.

Dovudbek AXTAMOV

E'TIBOR SABAB...

Bir kuni Javohir tanaffus paytida dars tayyorlab o'tirgan edi. Sho'xroq sinfdosh unga xalaqit qilib, jig'iga tegdi. Shunda Javohir:

— Mening fikrimni chalg'itma, undan ko'ra, kel, birga dars tayyorlaymiz, do'stim, — dedi mehr bilan. Bu gapdan do'sti uyalib ketdi va daftar-kitobini olib kelib, Javohir bilan birga dars tayyorlay boshladи.

Qissadan hissa shuki, har bir bolani yo'lg'a solsa bo'ladi, buning uchun birozgina e'tibor bo'lsa, bas.

Firdavs QARSHIYEV

Jasorat, burch, matonat

Hayotning past-u balandin ko'rgan, achchiq-chuchugini totgan, ayniqsa, dahshatli urushning azob-uqubatlarini o'z boshidan kechirgan keksa avlod vakillari — nuroniylarimizga har qancha e'zoz-ehtirom ko'rsatsak, arziydi.

Tabarruk ONAXON



Shahrimizning Yunusobod tumanidagi Oqtepa mahallasida yashovchi mehnat fronti faxriysi, 90 yoshni qarshilayotgan Huvaydo aya mahallamizning izzat-hurmatiga loyiq tabarruk onaxonlardan sanaladi.

Otadan 14 yoshida ajragan olladagi bosh farzand zimmasiga ro'zg'or yoki tushadi. Jamao xo'jaligida ishlab, onasi ibodat ayaga yordam bera boshlaydi. Huvaydoxonning taqdiri 1941-1945-yillarda jangdan yorug' yuz bilan qaytgan Said Rasulov bilan bog'lanadi. Ahillik, halollik ustun bo'lgan bu oiladagi 9 farzand, 30 nevara, 40 chevara hamisha ayaning atrofida parvona. Ota-onalaridan mehnat har qanday sharoitda ham insonni ulug'lashini tushunib yetgan farzandlar hozirgi kunda turli sohalarda yurt ravnnagi uchun o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bugungi kunda «Shuhrat» medali sohibasi Huvaydo aya davralarning to'rida qo'llarini duoga ochib, yoshlarga nurli kunlar osonlik bilan qo'liga kiritilmaganini aytib, unga shukrona keltirish kerakligini uqtirishdan tolmaydi.

Yonimizda, atrofimizda ana shunday duogo'y nuroniylarimiz bor ekan, yurtimiz yanada gullab-yashnayveradi.

*Gulchehra KARIMOVA,
Respublika «Nuroni» jamg'armasi huzuridagi «Faxriyalar va yoshlar bilan ishslash guruhi» a'zosi*

Buyuklar avlodimiz



BUXORO VILOYATI, G'IIJDUVON TUMANIDAGI 43-UMUMTA'LIM MAK TABI SHOGIRDLARGA QANOT BAXSH ETIB...

Ziyoda TESHAYEVA, maktab direktori:

Bugungi kunda muassasamizda 678 o'quvchiga 54 nafr fidoyi o'qituvchilar ta'limgardagi beradi. Maktabda ijodiy, fan va sport to'g'ararlari faoliyat yuritmoqda. Fan xonalari zamonaviy talablar darajasida jihozlangan, audio, multimedia resurslari bilan ta'minlangan. O'qituvchilarimiz saboq jarayonida «Dars muqaddas», «O'rgan — o'rgat», «Yaxshi muallim — sifatlari ta'limgardagi qat'iy amal qilishadi. O'quvchilarimiz juda faol, ular «Kamalak bilimdonlari» tarlovi viloyat bosqichida hamda futbol musobaqasida viloyatda 2-o'rinni, «Bilimlar bellashushi»da ham yuqori natijalarni qo'liga kiritishdi.

Maktabda «Fan oyliklari», «Ochiq darslar festivali» qiziqarli tarzda o'tkazildi. O'qituvchilardan Gulshod

Gadoyeva, Tursunoy Hasanova, Zebo Kattayeva, Dilafro'z Muhammedova, Feruza va Aziza Bo'ronova, Olim Ne'matov, Gulchehra Salimova, Mahbuba Temirova, Gulnoz Rajabova, Komila Samadovalar interfaol, innovatsion texnologiyalaridan foydalanih, darslarni puxta va zamon tabalalariga mos holda olib bormoqdalar. Maktab kutubxonasi doimo o'quvchilar bilan gavjum.

Ishonamanki, bizning o'quvchilar kelgusida Vatanimiz kelajagini yanada yuksaltirishga o'zlarining munosib hissasini qo'shishadi.



SHIFOKOR BO'LMOQCHIMAN!

Ota-onam, qishloqdoshlarni salomatligi yo'lida xizmat qilishni istayman. Maqsadimga yetishish uchun barcha fanlarni a'loga o'zlashtirishim kerakligini bilaman. Shuning uchun orzuim amalgalashida tinmay izlanaman.

Risolat OLIMJONOVA

Tursunoy HASANOVA, 4-«B» sinf rahbari:

— Sevimli nashrimiz «Tong yulduzi» ijodkorlari! Maktab ma'muriyati o'quvchilar qalbini zabt etishga ulgurgan gazetangiz sahifalarini ular bilan birgalikda hayajon ila kuzatib etmoqda. Biz bundan behad minnatdormiz.

O'quvchilarimiz fikrlari bilan tanishing



A. NE'MATOV, boshlang'ich sinflar bo'yicha direktor o'rinnbosari:

— Maktabda tashkilashtirilgan tadbirlarda faol ishtiroy etgan o'quvchilar hamisha rag'batlaniriladi.

GULCHIROYNING IBRATI

5-«D» sinf o'quvchisi Gulchiroy Jabborova haqida gap ketganda, ustozlari va maktab yetakchisi Malika Hasanova sabab, deb bilaman. Tog'ayeva uning maktab, tuman va viloyat miyoqida o'tkaziladigan tanlovlardagi ijodiy ishlarni, avvalo, ularga faolligini faxr bilan tilga oladi. Ayniqsa, «Kamalak» sardorlaridan biri, «Kamalak bilimdonlari-2015» tanloving viloyat bosqichida maktab jamoasi 2-o'rinni egallashida hissasi kattaligini alohida ta'kidlaydi.

TASHAKKUR, USTOZ!

Bizning sinfda deyarli barcha ijodkor. Shunday ekan, buning boisi nimada, deb o'yashlingiz aniq. Bu bizning sevimli, kamtar, ammo o'ta talabchan ustozimiz Tursunoy Hasanova sabab, deb bilaman. Hatto yuqori sinf o'quvchilar ham ijdoriy ishlarni, avvalo, ularga ko'shatishadi.

Man, so'nngi qo'ng'iroq ham yaqinlashib kelyapti. Biz esa boshlang'ich sinfni tugatamiz. Ustoz, siz bilan sira xayrashgimiz kelmaydi. Siz onamiz kabi mehrivonsiz. Baxtimizga doimo sog' bo'ling!

Hurmato IZZATOVA

BIZ «YOSH TABIATSHUNOSLAR» DANMIZ

Maktabimizda «Yosh tabiatshunoslari» to'garagi faoliyat yuritadi. O'quvchilar va ustozlar hamkorligida har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Ko'chat o'qazaylik» tadbiri bois, bugun maskanda qariyb 200 tur archa hamda o'rak, yuzlab manzarali daraxtlar, 50 tupdan ortiq atirgul o'tqazilib, parvarishlanmoqda. Turfa xildagi gullar yashnab turgan gulzorimizga hamma havas qiladi. Bir qarich yer ham e'tibordan chetda emas. Jonli burchagimizda esa quyon, tovuq, toshbaqa va sayroqi qushlar bor. Agar maktabimizga kelsangiz, tabiatning go'zal, mo'jaz manzarasidan siz ham bahramand bo'lasisiz.

Sardor RAMAZONOV



ORZULARIM QANOTI

Maktabda xushxabar tarqaldi. Uni eshitishim bilanoq, «Kitobim, qalbim, qalbim» oftobim, bo'l ertam saodati, orzularim qanoti», deya maktab kutubxonasi tomon oshiqdim.

Kutubxonamizga 460 dan ziyod yangi turdag'i kitoblar kelibdi. Ular orasida sevimli shoir va yozuvchilarimiz Zulfiya, Po'lat Mo'min, Said Ahmad, Xudoyberdi To'xtaboyev, O'tkir Hoshimov, Anvar Obidjon asarları borchigini ko'rib, sevindim.

Nodirabegim BAXTIYOROVA



YURTIMIZ POSBONLARI

Sizlar borki, biz tinchmiz, Yurtimiz posbonlari. Postda hushyor turishar, Mard, jasur o'g'onlari.

Momolar duo qilar, Sizlarga umr tilar. Boshingiz Humo silar, Vatanim qalqonlari.

Hanifa SHAMSIYEVA,
3-«A» sinf o'quvchisi

SIZ BORSIZ, QADDIM BALAND!

Tunlari alla aytgan, Siz mening mehribonim. Tinmay ertaklar aytgan, O'zingiz jonajonim.

Ko'zingizga qarasam, Nur yog'ilar doimo. So'zlarining eshitsam, Ko'zimda yashnar dunyo.

Siz borsizki, onajon, Hayot bermas menga pand. Siz borsizki, onajon, Boshim tik, qaddim baland.

Munisa IMOMOVA,
4-«V» sinf o'quvchisi

ENG ZO'R HISOBCHI

Men «Yosh matematiklar» to'garagi a'zosiman. Dastlab, bu fan menga qiyin tuyuldi. Ammo Ibn Sinoning «Toshni kesgan arqon» rivoyati menga qat'tiq ta'sir qildi. O'zimda qat'iylik sezdim. Mana, to't yildirkil, «Eng zo'r hisobchi» tanlovida maktabdoshlarim orasida birinchilikni qo'dan bermayapman.

Yaqinda sinfdoshlarim o'tasida kichik olimpiadada ham 1-o'rinni egallab, tanloving tuman bosqichiga yo'llanma oldim. Bu gal ham yetakchi o'rinni egallash uchun astoydil harakat qilmoqdamman.

Azimjon TEMIROV

Sahifani F. ADILOVA, A. KARIMOV,
N. QIDIRALIYEV, Z. MAMATQULOVA tayorlashdi

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda adabiyotning o'rni beqiyos. Yillar davomida yaratilgan boy ma'naviy merosimizni o'rganish, uni o'quvchilar o'ttasida keng targ'ib etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Yaqinda poytaxtimizning Olmazor tumaniagi 28-umumta'lum maktabida o'tkazilgan adabiy-badiiy kecha «Adabiyotga oshufta dillar», deb nomlandi. Kechada shoira Muhtarama Ulug'o va, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari Dilbar Siddiqova va Robiya Ro'ziyeva, tuman XTMFMT va TE uslubchisi Maryamjon Matyoqubova shoira Zulfiyaning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, adibaning hayot saboqlari haqida to'xtalib o'tishdi.

— Zulfiya opa men, men kabi a d a b i y o t i x losmandlarining eng yaqin maslahatchisi edi, — deb hikoya qiladi u bilan «Saodat» jurnalida uzoq yillar birga ishlagan Muhtarama opa. — Ustozimda o'rnak olsa arzigulik fazilatlar ko'p edi. Qanchadan qancha qo'shiq va afsona, doston va ertaklarni yoddan biladigan onaning hikoyalari jajji qizaloqqa benihoya huzu bag'ishlaganini sog'inib eslar edi. Doimo adabiy tilda so'zlardi. Rus tilini mukammal bilgani bois, tarjimonlarga so'zlarining rus tilidagi ma'nosini ko'pincha o'zi topib berardi. Lutfiy, Navoiy, Shekspir, Pushkin va Nekrasovlar ijodiga

alohida mehr qo'yandi. Ochig'i aytsam, o'zbek qizlariga xos kiyinish, muomalal madaniyati, o'z ustida ishlashni Zulfiya opadan o'rganganan.

Shuningdek, tadbirda maktab o'quvchilaridan

Soliha Abdurazzoqova, Robiya Hikmatullayeva ijodlaridan namunalar o'qib berishdi. Vasila Inog'omova, Nasrulla To'rayev, Dilfura Ismoilova ishtirokidagi mushoira hamda 7-sinf o'quvchilar tomonidan teatrlashtirilgan sahna namoyishi ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Zero, yosh va izlanuvchan

o'qituvchilar Xumora Rahmatullayeva, Oydin Navro'zova hamda Ziyoda Qosimovalar tashkillashtirgan kechadan maqsad, ustoz Mirtemir ta'biri bilan aytganda, o'ta kamtar, zahmatkash, bilim ufqi keng, doimo dili toshqin, olamni timsollar ko'zgusida tasavvur etishga qodir yetuk shoira ijodini puxta o'rganib, uning tabiatidagi jihatlarini kashf etib borishdir.

Nodira NAZAROVA



Marjona akasi Shahriyor bilan kuylagan «O'zbekiston» deb nomlangan qo'shiq'i boshlang'ich sinflari o'ttasida Chilonzor tumani bo'yicha o'tkazilgan «Eng yaxshi jozibador kuy va maftunkor raqs» ko'rik-tanlovida «Eng yaxshi qo'shiq» nominatsiyasi g'olib bo'ldi.

KITOBXONLAR TANLOVI

Toshkent shahar, Olmazor tumani xalq ta'limi muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi 249-umumta'lum maktabi qoshidagi Axborot resurs markazida «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tanlovi o'tkazildi.



Tuman miyosidagi bu tanlovdan maqsad o'quvchilarga milliy va jahon adabiyoti, ilmiy ommabop qo'llanmalarni tizimli targ'ib qilish orqali ularda vatanparvarlik, ezzulik, insonparvarlik singari yuksak insoniyat fasilatlarga nisbatan mehr va muhabbat uyg'otish hamda axborot olish madaniyatini shakkantirishdan iboratdir.

Tanloving maktab bosqichida olyi o'rinn 28-umumta'lum maktabiga, 1-o'rinn 278-va 298-umumta'lum maktablariga berildi. 2-o'rinni 11-, 261-umumta'lum maktablari, uchinchi o'rinni 326-umumta'lum maktabi o'quvchilar qo'lg'a kiritishdi. Qolgan maktablar ham faxrlı o'rnlarga sazovor bo'lishdi.

Muzaffar AHMEDOV

Anjuman davomida «Men, ota-onam, bobom-buvim – kitobxon oila» maktablararo tanlovi hami o'tkazildi. Unda o'quvchilar va oila a'zolari faol qatnashib, olyi o'rinni 133-umumta'lum maktabi, 1-o'rinni 224-umumta'lum maktabi, 2-o'rinni 22-umumta'lum maktabi, 3-o'rinni 119-umumta'lum maktabi vakillari qo'lg'a kiritishdi. Mutasaddilar va maktab ma'muriyati tomonidan faol o'quvchilar va ularning oila a'zolariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alar topshirildi.

G'LIJAKCHI MAHORATI

Mashhurbek Ubaydullayev Andijon shahridagi 7-maxsus musiqa maktab-internatinning 8-«B» sınıf o'quvchisi. U hozirda Alijon Qodirov rahbarligida g'ijjak mutaxassisligi sinifida dars oladi. O'ziga xos iqtidorga ega bo'igan Mashhurbek bir qancha viloyat va respublika ko'rik-tanlovla rining faol ishtirokchisi.

Yaqinda yosh sozanda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan «Yevropaga yo'l» xalqaro festivalida ishtirok etib, 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Ko'rik-tanlovlarda qatnashish Mashhurbekning ijrochilik mahoratini oshiribgina qolmay, qardosh xalqlarning san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Sardorbek INOMIDDINOV

Vatan uchun yaralgan qo'shiq

Marjona akasi Shahriyor bilan kuylagan «O'zbekiston» deb nomlangan qo'shiq'i boshlang'ich sinflari o'ttasida Chilonzor tumani bo'yicha o'tkazilgan «Eng yaxshi jozibador kuy va maftunkor raqs» ko'rik-tanlovida «Eng yaxshi qo'shiq» nominatsiyasi g'olib bo'ldi.

Poytaxtimizdagi 79-umumta'lum maktabining 2-«V» sınıf o'quvchisi Marjona Akbaraliyeva go'zallikka oshno o'quvchilardan. U badiyi gymnastikaning nozik sirlarini o'rganish bilan bir qatorda, tumandagi 12-Madaniyat va istirohat markazida tashkil etilgan raqs to'garagining a'zosi. Murabbiysi Valentina Linskayadan «Xorazmcha», «Andijon polkasi», «Baloligim», «O'zbekistonim» kabi milliy hamda qardosh xalqlar raqslarini qunt bilan o'rganyapti.

Marjona akasi Shahriyor bilan birgalikda «Chuppy», «Kango» reklamalarida, xonanda Ulug'bek Rahmatullayevning «Chaqlaloqlar», A. Imyaminovning «Adashdim», xonandalar «Farhod va Shirin» guruhni xonandalaringin «Ota uyning ostonasi», Sardor Rahimxonning «Qushcha» qo'shiqlariga olingan kliplarda muvaffaqiyatlari suratga tushishga ham ulgurdi.

Marjonaning ko'plab qo'shiqlariga otasi – Toshkent pedagogika kollejining Musiqa kafedrasi katta o'qituvchisi, bastakor Baxtiyor aka Sobirov kuy bastalagan. Baxtiyor aka farzandlari bilan kollej jamoasi tadbirlerida ham muntazam ishtirok etib keliishiadi.

Maktabda a'llo baholarga o'qish, tirishqoqlik, intizom, xushchaqchaqlik, dadilik, intiluvcharlik Marjonaga doimo kuch bag'ishlaydi. Yangidan yangi muvaffaqiyatlar sari chorlaydi. Yoshiste'doddagi go'zallikka oshnolik vaqtlar kelib, albatta, o'z mevasini berishiga ishonamiz.

Dilbar MAXAMEDOVA,
Nodira YORMAT qizi



N. SULTONOV o'qigan surʼat

Lesson 33

BABUR'S HOUSE MUSEUM (Bobur uy-muzeysi)



Babur's house museum – is situated in Andijan city, where Zahiriddin Muhammad Babur lived and studied in Ark-Ichi, the town's citadel that exists no more. The museum opened in 1989 on the site of his residence, in celebration of the 460th year of publication of his autobiography entitled Baburname, published in English as the Memoirs of Babur.

DETERMINE THE TENSE (Zamonni aniqlang)

Read the following sentences and define their tenses.

Teacher is writing to the blackboard. *Present Continuous*

Pupils are looking at the blackboard now.

We watched the film with our neighbors yesterday evening.

Saida runs every morning.

Jamol went to his grandfather last week.



Umida UMAROVA

QUESTIONS ABOUT COLORS (Ranglar haqida savollar)

- What color are Adolat's overalls? _____
- Are Tohir's shorts grey? _____
- _____? Lola's dress is orange.
- Who has got black hair? _____
- _____? Shahnoza's dress is purple.
- _____? No, his T-shirt is yellow.
- _____? Eldor has.
- What color are Jamshid's shorts? _____
- Is Nigora's dress orange? _____
- Who has white socks? _____
- _____? It is light blue.
- What color are Lobar's shoes? _____



Inobat QUDRATOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
51-umumta'lum maktabining ingliz tili o'qituvchisi

UNDERLINE THE CORRECT WORD (To'g'ri so'zni belgilang)




- This is (our/ours) car.
- Is this (yours/your) house?
- Whose is this umbrella? It's (my/mine).
- That bicycle is (hers/her).
- She's (mine/my) sister. (Her/Hers) name is Umida.
- That is (me/my) friend Sitora.
- Bekzod this is Bahora. (She/Her) is a doctor.
- Is this your wallet? No it is not (my/mine). It's O'gloy's.

Gulzoda NAFASOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
24-umumta'lum maktabining 9-«B» sinif o'quvchisi

THE RESOURCEFUL GAME (Topqirlik o'yini)

Resolve the following rebus.

Find the names of these things in English and put together the head letters to make a new word.



Risolat ISMOILOVA

DO YOU KNOW THIS? (Bilasizmi?)

Vitamins are found in four food groups: 1) Fish and meat. 2) Vegetables and fruits.
3) Eggs and milk products. 4) Grains.

Doctors' advise that the best way to get all the vitamins we need is to eat some of these foods every day.

PUNCTUATION (Tinish belgilari)

The parrot needs help putting the correct punctuation at the end of each sentence. Help him complete each sentence by adding a period (.), exclamation point (!) or question mark (?).

- Who is the author of the story you have just read _____
- The story is about modern computers _____
- Don't open the window _____
- Did you learn by heart the poem yesterday _____
- Sardor and me are close friends _____
- Look at those black clouds on the sky _____
- Could you swim when you were at 8 _____
- Where do you go every day _____



Dinora SHAKIROVA tayyorladi

She'riyatning nurli bo'stoni

Yozgan she'rlarining ohangidan quvonchi olamga sig'magan ijodkor yoshiarning dilnomalarini bo'lamic. Sehrla so'z dunyosida baxtli bolalik zavqini surib, mashq qilayotgan o'quvchilarimizga she'riyatning beg'ubor bo'stoniga qo'ygan qadamingiz qutlug' bo'lsin, deymiz. Bugungi she'riyat bahsida o'zingiz goh ilg'ab, gohida ilg'amay qog'ozga tushirgan nurli satrlaringiz haqida o'rtoqlashaylik.

Gulbahor

Gulbahor, hoy gulbahor,
Quchog'ingda shodlik bor.
Ko'z tegmasin husningga,
Tugamaydi hech alyor.

Suv bo'yida sumbulcha,
Boychechak – ajib gulcha.
Yurtga atab she'r yozdim,
O'zim – mitti bulbulcha.

Halima OTABEKOVA,
Xorazm viloyati,
Hazorasp tumanidagi
36-umumta'l'm maktabining
6-sinf o'quvchisi

Kitob

Kitob mening hamrohim,
Turar doim yonimda.
Undan olaman boylik,
Gap ko'p qadrondimda.

Shahzoda FAZLIIDDINOVA,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
3-umumta'l'm maktabining
7-sinf o'quvchisi

ERKATOY

Erkatosan juda ham,
O'n yosh bo'lding bugun san.
Sovg'alalarim oz, deysan,
Hayron qoldim hatto man.

Dilfuza MAHMUDOVA,
Farg'on'a viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
16-umumta'l'm maktabining
6-sinf o'quvchisi



Rasul bilan Jalil maktabdani qaytgach, Rasullarnikida uya berilgan vazifalarni birgalikda tayyorlamoqchi bo'lishdi. Hammasidan ham fizikadan berilgan masalalar ularga rosa qiyinchilik tug'dirdi. Shunda Rasul Jalilga:

– Uyga borgach, masalalarni yana bir marta tekshirib ko'r, ayrimlarida xatoliklar bo'lishi mumkin. Men esa senga hozir bog'imizdag'i olmalaridan olib kelaman, – deya xonadan chiqib ketdi.

Shunda Jalilning xayolidan:

– Baribir Rasul yechgan masalalar to'g'ri chiqadi. Agar uning daftarini olib qo'ssam, ertaga bir o'zim a'lo bo'la olar edim. U ham bir marta yomon baho olib ko'rsin, – degan fikr o'tdi va do'stining daftarini papkasiga solib qo'ydi.

Shu payt quchog'in olmalar bilan to'ldirib Rasul kirkeldi.

– Ha, keldingmi, buncha hayallading? – dedi Jalil.

– Olmalar terib keldim, mana, ol.

– Rahmat, endi men boraqolay.

Shunday deb Jalil do'sti bilan xayrashdi. Ko'chaga chiqqanida o'zida yo'q xursand edi. Go'yoki ertaga fizikadan bir emas, ikkita besh oladigandek.

Ko'chada futbol o'ynayotgan bolalarni ko'rib, Jalilning ham koptok teppisi keldi. Papkasini o'tloqqa uloqtirib, ularga qo'shildi.

VAZIFA



SH. MAMONNOVA chizigan rasm
Maydon chetida kichkina bolalar o'yinni tomosha qilib o'tirishgan edi. Ulardan biri yerda sochilib yotgan kitob-daftarlarga hayron bo'lib qaradi. Shu payt ko'z o'ratcha qal ninlikdag'i daftarga tushdi. Qodirov Rasulning fizika daftari...
– Axir bu Rasul akamning daftari-ku. Hoziroq ularga olib borib beraman, – deya bola qo'shni akasining hovlisiga yugurdi.

Ertasiga Rasul va Jalil birgalikda maktabga kelishdi. Birinchi soat fizika darsi edi. Har doimgidek ustoz mavzu bilan tanishtirgach, uy vazifalarini tekshira boshladi:

– Azizov, daftaring bilan kel, – deb chaqirdi u. Jalil gerdaygancha o'qituvchiga daftarini uzatdi. Ustoz masalalarga ko'z yogurtirgach:

– Azizov, xatolaringni ko'rmaodingmi? Yoki mavzuni yaxshi tushunmaganmiding? Yechgan masalalaringda xato borligi uchun bahoing «3» bo'ldi.

Jalil go'yoki osmondan «gars» etib yerga tushgandy bo'ldi. Shu mahal Rasul ham doskaga chaqirildi. Shunda Jalil beixtiyor:

– Uning daftari yo'q, ustoz, demak, uy ishi ham yo'q, – deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi.

– Daftarim mana, ustoz, – deya Rasul qo'lidagini o'qituvchiga uzatarkan, do'stining gapini eshitmaganga oldi.

O'qituvchisi Rasulning masalalarini tekshirib, xursand bo'ldi.

– Barakalla, masalalarni to'g'ri yechibsan. Bahoing «5».

Qilgan ishidan pushaymon bo'lgan Jalil uyalganidan yer chizib qoldi.

Shahnoza MUHAMMEDOVA

Keksalar

Har doim quvnatgim kelar dilini,
Ulardan o'rgandim hayot ilmini.
Tuhfalar qilaman mehrim gulini,
Ona yurtim keksalari e'zozda!

Gulnora AHMEDOVA,
Pitnak shahridagi 4-umumta'l'm
maktabining 8-sinf o'quvchisi



vidi.

YURT MADHI

Quchog'ingda ulg'ayib o'sdim,
Bog'laringda sho'x-shodon kezib.
Tuprog'ingni mudom madh etgum,
Oltinga kon ekanin sezib.

Lutfiya JO'RAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
44-umumta'l'm maktabining
9-sinf o'quvchisi



Tipratican

Tipratican topvoldik,
Bog'imizdan bir kuni.
Ko'zlar misli munchoq,
Tikanli ekan to'ni.

Uychada yolg'iz o'zi,
Yotgan ekan bekinib.
Sadoqat cho'chib tushdi,
Qo'lunga teginib.

Kumushbibi RAHMONOVA,
Samarqand viloyati,
Pastdarg'om tumanidagi
44-umumta'l'm maktabining
8-sinf o'quvchisi

AXTAMQULI

Ertasiga Rasul va Jalil birgalikda maktabga kelishdi. Birinchi soat fizika darsi edi. Har doimgidek ustoz mavzu bilan tanishtirgach, uy vazifalarini tekshira boshladi:

– Azizov, daftaring bilan kel, – deb chaqirdi u. Jalil gerdaygancha o'qituvchiga daftarini uzatdi. Ustoz masalalarga ko'z yogurtirgach:

– Azizov, xatolaringni ko'rmaodingmi? Yoki mavzuni yaxshi tushunmaganmiding? Yechgan masalalaringda xato borligi uchun bahoing «3» bo'ldi.

Jalil go'yoki osmondan «gars» etib yerga tushgandy bo'ldi. Shu mahal Rasul ham doskaga chaqirildi. Shunda Jalil beixtiyor:

– Uning daftari yo'q, ustoz, demak, uy ishi ham yo'q, – deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi.

– Daftarim mana, ustoz, – deya Rasul qo'lidagini o'qituvchiga uzatarkan, do'stining gapini eshitmaganga oldi.

O'qituvchisi Rasulning masalalarini tekshirib, xursand bo'ldi.

– Barakalla, masalalarni to'g'ri yechibsan. Bahoing «5».

Qilgan ishidan pushaymon bo'lgan Jalil uyalganidan yer chizib qoldi.

G'OLIBLIKNI BOY BERMAGANLAR



Samarqand viloya-
ting Jomboy tumanidagi
7-umumta'lim maktabida
sport to'garaklari faollari
talaygina.

Diyorjon Ergashev
hamda Diyor
Musulmonov sportning
kombat-aykido turi
nagdaun yo'nalishi

bo'yicha tuman, viloyat musobaqlarida
g'oliblikni qo'lidan bermay kelishmoqda.
Xalqaro kombat-aykido assotsiasi-
tsiyasi Navoiy viloyatida Amir Temur
tavallidiga bag'ishlab tashkil
lashtirgan sport musobaqsida
Diyorjon 1-, Diyor esa 2-o'rinni
egalladi.

Shoira SHUKUROVA



7-«B» sind o'quvchilaridan
Xalqaro kombat-aykido assotsiasi-
tsiyasi Navoiy viloyatida Amir Temur
tavallidiga bag'ishlab tashkil
lashtirgan sport musobaqsida
Diyorjon 1-, Diyor esa 2-o'rinni
egalladi.

Mashhur M sinf sardori

Mashhurbek Arslonov Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabining 5-sinfida ta'lim oladi. Besh yildan buyon sinf sardori vazifasini mas'uliyat bilan bajarib kelmoqda. «Yosh matematik» va «Ingliz tilini o'rganamiz» to'garaklari a'zosi. Muassasa qoshidagi drama teatri tomoshalarida faol ishtirok etadi.

Mana, to'rt yillardir, viloyat hokimligi Madaniyat va sport ishlari boshqarmasiga qarashli ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralarli bolalar va o'smirlar sport maktabida u erkin kurash bilan shug'ullanib keladi. Yosh sportchi xalqaro turnirlar sovrendori, viloyat terma jamoasi a'zosi Anvarbek Sanayev murabbiyigida ko'plab musobaqlarda ishtirok etib, ustoz iishonchini oqlamoqda.

O'tgan yillarda Andijon viloyati championati hamda 1998 - 2001-yilda tug'ilgan o'smirlar o'tasidagi ochiq turnirda faxrlxi 2-o'rinni egalladi.

Kurashchi hozirda joriy yilning may oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan bolalar va o'smirlar o'tasidagi O'zbekiston championatiga puxta tayyorgarlik ko'moqda.

- Mashhurbek sabab, sinfimiz shaharda mashhur bo'ldi. O'quvchimning kelajakda jahon miqyosidagi musobaqlarda, Olimpiada o'yinlarida g'oliblikni qo'lg'a kiritib, O'zbekistonimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarishiga ishonaman, - deydi ustoz Barnoxon Mavlonova.

Andijonlik o'quvchining kelgusida nafaqat maktabi, balki mammalatimiz sharafini munosib himoya qiladigan yetuk sportchi bo'lishiga biz ham ishonamiz.

NURBEK



H. HAMIDULLAYEV o'lgan surʼat

Bektemir - jahon championi



Bugun yurti-
mizning qay go'shasiga
bormang, katta bunyodkorlik
ishlari ko'zingiz tushadi.
Ayniqsa, siz yoshlarning sog'lim
yetishishingiz uchun qurila-
yotgan bir-biridan chiroylar,
zamonaviy sport inshootlari
chinakam mo'jiza.

Farg'ona viloyati
ta'lim muassasalarida
turli yo'nalishlar bo'yicha
iqtidor egalari ko'plab topiladi.
Ayniqsa, sportda erishilayotgan
yutuqlar ko'lami kengayib
bormoqda. Hikoya qilmoqchi
bo'lganimiz Qo'qon pedagogika
kolleji o'quvchisi Bektemir
Meliqoz'iyev ana shunday
umidli yoshlardan
biridir.

Bektemir 2005-yildan beri boks bilan mutazam shug'ullanib keladi. Chapdast va epchil sportchi betakror harakatlari bilan mutaxassislar e'tiboriga tushdi. O'tgan yillarda davomida yuksak unvonlarga sazovor bo'ldi. Bir necha marta O'zbekiston championi bo'lgan charm qo'lqop ustasi Ozarbayjonda o'tkazilgan xotira, Rossiya Federatsiyasining Anapa shahrida bo'lib o'tgan xalqaro, Qozog'iston Respublikasi, Almati shahri, Mingerey Xayriddinov xotirasiga bag'ishlangan turnirda g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

Yosh bokschi birgina o'tgan yilning o'zida qator g'alabalar sohibi bo'ldi. Jumladan, Tailanda o'smirlar o'tasidagi Osiyo championati g'olib, Bolgariya poytaxti Sofia shahridagi jahon championati sovrendori hamda XXR Nankin shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar o'tasidagi 2-Olimpiada o'yinlarida championlikni qo'lg'a kiritdi. Shuningdek,

Namanganda o'tkazilgan «Barkamol avlod» sport o'yinlari g'olib bo'ldi. Ismi jismiga monand sportchimiz vaqt kelib, murabbiy sifatida respublikamizdagidagi boksga uquvi bor yoshlarni kashf etib, yurtimizda sportning bu turi ommalashishiga hissasini qo'shishni oldiga asosiy maqsad qilib olgan.

Xurshid YUNUSOV

Iqbolingiz ko'rib, quvondim

viloyat miqyosidagi musobaqlarda
qatnashishining o'zi katta bir orzu edi.
O'quvchilarning xalqaro
musobaqlardagi ishtiroki haqida esa
gapirmasa ham bo'ladi...

Bugun hammasi boshqacha.
Davlatimiz tomonidan sportni
rivojlantirish, yoshlarimizni bu sohaga
kengroq jalb etish borasida olib
borilayotgan keng ko'lamli ishlarni
ko'rib, bugungi shukuhli kunlarimizga
shukronalar aytaman.

Sattor boboning so'zlari ayni
haqiqat. Hozirda ommaviy axborot
vositalari orqali biron o'smirlarning qaysidir
xalqaro musobaqa qo'lib bo'lgani
to'g'risida xushxabar eshitmagan
kunimiz yo'q. To'maris avlodlari

bo'lmish sportchi qizlarimizning ham
bugun g'ayrat-shijoati o'zgacha.
Yigitlardan qolishmagan holda ular ham
turli musobaqlardagi ketma-ket
g'oliblikni qo'lg'a kiritishmoqda.

O'zbekiston bolalar sportini
rivojlantirish jamg'armasi Jizzax
viloyati filiali direktori O'ktam
Mamatqulovning ta'kidlashicha, 2003-
yildan hozirgi kunga qadar viloyatda
jamg'arma tomonidan 105 ta yangi
bolalar sport inshootlari qurilish,
mavjudlari rekonstruksiya qilindi.

- Misol uchun, ayni kunlarda
viloyatimizning Baxmal, Jizzax, Zomin,
G'allaorol, Zarbdor tumanlari
umumta'lim muassasalarida 12x24
o'chamdagagi sport zallari qurilib,

foydalinishga topshirildi, - deya
qo'shimcha qildi O'ktam aka. -
Shuningdek, Jizzax shahrida Universal
sport majmuasi, Zomin tumanidagi
1-bolalar va o'smirlar sport maktabida
yoqip suv havzasini barpo etildi.

Ayni kunda
sportga mehri baland
yoshlar uchun barcha
sharoitlar muhayyo. Gap
esa bu imkoniyatlardan
oqilona foydalishda. Biz
bu boroda siz, aziz
sportsevar do'stlari.
mizga ishonamiz.

Farhod ESHMO'MINOV

Bilimdonlar bellashgan zamon, Nurga to'lar hur O'zbekiston!

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyida ta'lif ikki yo'nalishda: xorijiy filologiya hamda aniq fanlar bo'yicha olib boriladi. Litseyda 5 ta kafedra faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, aniq fanlar kafedrasida 9 nafar o'qituvchi matematika, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya va iqtisod asoslari fanlaridan dars berishmoqda. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida kafedralarda «Yosh matematiklar», «Yosh fiziklar», «Yosh kimyogarlar» to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Maskanda har yili aprel oyida aniq fanlar oyligi o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan bo'lib, bunda barcha o'qituvchilar ochiq darslar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil lashtirishadi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvida ta'lif muassasasining 1-bosqich o'quvchilaridan tuzilgan «Erudit», «Tezlik», «Haqiqat», «Bilimdonlar» guruhlari o'zarlo bellashishdi. «Tashrif», «Kashfiyotlar olami», «Qonunlar bekati», «O'yla, izla, top», «Fizika – hayotda», «Zukkolar oroli» hamda «Shakl ichida shakl» shartlari yuzasidan olib borilan tanlovida o'quvchilar darsda o'zlashtirgan bilimlari yuzasidan kuch sinashdilar. Bilimdon zukkolar dunyo




olimlarining fonda yaratgan ixtiolarini slaydlar orqali namoyish etishdi. Qonunlarni sharhlashdi. Ayniqsa, Muhammadali Karimov, Ziyoda Erkinova hamda Muxlisa Nabiyevaning «Yonmaydigan ro'molcha», «Shisha idish va tuxum» amaliy tajribasi qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi.

Bahs va munozaraga boy bellashuv o'z nihoyasiga yetdi. Hay'at a'zolari tonmonidan o'quvchilarning har bir chiqishlari munosib baholandi. 5-14 guruh, «Tezlik» jamoasi 1-, 1-14 guruh «Erudit» jamoasi 2-, 6-14 guruh, «Haqiqat» chilgara 3-o'rin nasib etdi.

Dilbar IBODOVA,
Muborak
TOSHMETOVA,
TDSHI qoshidagi
Olmazor akademik
litseyi o'qituvchilari,
NURBEK

Bu, qiziq!



Bo'yiga: 1. Nodira taxallusi. 2. Qit'a. 3. Ho'l. 5. Hasharot. 7. Olim. 9. Muammo. 13. Yozuv quroli. 16. Ovoz. 18. ... – bula.

Eniga: 4. Monand. 6. Xonodon. 8. Dunyo. 10. Sira. 11. Farishta. 12. Bahodir. 14. Tong. 15. Shohning qizi. 17. Chap. 19. Ota (shevada).

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

8



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoliy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtaza SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 48215
Buyurtma – S 2761

103 YOSHLI O'QUVCHI!

Yoshligida uka va singillari tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib, vaqtida o'qiy olmagan bu xonim, nihoyat o'rta maktabni bitirib, yetuklik shahodatnomasini oldi. O'zini juda sog'gom va tetik his qilayotgan momomizning endigi orzusi – kollejda tahsilni davom ettirish. Shuni aytishadida, «Ilm olish yosh tanlamaydi», deb.

BONU tayyorladi



27-aprel 2015